



**BUXORO DAVLAT
PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

**BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

ILMIY – METODIK JURNAL

No. 2

AHMAD DONISHNING “NAVODIR-UL VAQOE” ASARIDA TARBIYA, ILM VA INSON KAMOLOTI MASALALARI

Qo'ldoshev Mexriddin Avezmurodovich,

Buxoro davlat pedagogika instituti

2-bosqich tayanch doktoranti

mexriddinkuldoshev@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ahmad Donishning pedagogik g'oyalari va ularning zamonaviy ta'lim jarayonida, xususan talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida qo'llanilish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Mutafakkir asarlarida ilgari surilgan ilmga intilish, halol mehnat, sabr-toqat, kamtarlik, qanoat va o'zini nazorat qilish kabi g'oyalar yosh avlodni barkamol shaxs sifatida shakllantirishda muhim tarbiyaviy asos bo'lib xizmat qiladi. Maqolada ushbu g'oyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish mexanizmlari, jumladan refleksiya mashg'ulotlari, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va muhokama darslari orqali samarali qo'llash yo'llari yoritilgan. Shuningdek, “Navodir ul-vaqoe” asarining tarbiyaviy ahamiyati va uning bugungi kundagi dolzarbligi asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari talabalarda ma'naviy yetuklik, ijtimoiy mas'uliyat va axloqiy poklikni rivojlantirishda Donish g'oyalarining muhim metodik manba ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Ahmad Donish, “Vasoyoi farzandon”, “Navodir ul-vaqoe”, ma'naviy-axloqiy tarbiya, pedagogik g'oyalar, ilm-ma'rifat, kamtarlik, halollik, sabr-toqat, talaba-yoshlar, tarbiya metodikasi.

ISSUES OF EDUCATION, KNOWLEDGE, AND HUMAN PERFECTION IN AHMAD DONISH'S “NAVODIR-UL VAQOE”

Qo'ldoshev Mexriddin Avezmurodovich,

Second-year Doctoral Student,

Bukhara State Pedagogical Institute

mexriddinkuldoshev@gmail.com

Annotation. This article analyzes Ahmad Donish's pedagogical ideas and the possibilities of their application in the modern educational process, particularly in the spiritual and moral upbringing of students. The ideas promoted in the thinker's works, such as the pursuit of knowledge, honest work, patience, modesty, contentment, and self-control, serve as an important educational foundation in shaping the younger generation into well-rounded individuals. The article highlights mechanisms for integrating these ideas into the educational process through reflective activities, spiritual and educational events, and discussion-based lessons. In addition, the educational significance of the work “Navodir ul-vaqoe” and its contemporary relevance are substantiated. The research findings demonstrate that Donish's ideas are an important methodological source for developing students' spiritual maturity, social responsibility, and moral integrity.

Keywords: Ahmad Donish, “Vasoyoi farzandon”, “Navodir ul-vaqoe”, spiritual and moral education, pedagogical ideas, science and enlightenment, modesty, honesty, patience, students, educational methodology.

ВОПРОСЫ ВОСПИТАНИЯ, ЗНАНИЯ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЛИЧНОСТИ В ПРОИЗВЕДЕНИИ АХМАДА ДОНИША «НАВОДИР-УЛЬ ВАКОЕ»

Кулдошев Мехрiddин Авезмуродович,

Докторант 2-го курса

Бухарского государственного педагогического института

mexriddinkuldoshev@gmail.com

Аннотация. В данной статье анализируются педагогические идеи Ахмада Дониша и возможности их применения в современном образовательном процессе, в частности в духовно-нравственном воспитании студентов. Идеи, выдвинутые мыслителем в его произведениях, такие как стремление к знаниям, честный труд, терпение, скромность, довольство и самоконтроль, служат важной воспитательной основой в формировании молодого поколения как гармонично развитой личности. В статье освещаются механизмы интеграции этих идей в образовательный процесс посредством рефлексивных занятий, духовно-просветительских мероприятий и уроков-дискуссий. Также обосновывается воспитательное значение произведения «Наводир уль-вакое» и

его актуальность в современный период. Результаты исследования показывают, что идеи Дониша являются важным методическим источником в развитии духовной зрелости, социальной ответственности и нравственной чистоты студентов.

Ключевые слова: Ахмад Дониш, «Васойои фарзандон», «Наводир уль-вақое», духовно-нравственное воспитание, педагогические идеи, наука и просвещение, скромность, честность, терпение, студенческая молодежь, методика воспитания.

Kirish. Tojik xalqining buyuk mutafakkiri va ma'rifatparvari Ahmad Donish Sharq madaniyati va ijtimoiy tafakkuri rivojiga ulkan hissa qo'shgan allomalardan biridir. Uning “Navodir ul-vaqoe” asari inson, jamiyat, ilm-ma'rifat va axloq masalalarini chuqur yoritgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Ahmad Donish insonni jamiyatning eng oliy mavjudoti sifatida talqin qiladi. U insonning qadr-qimmatini ilm, tafakkur, mehnat va axloq bilan belgilanishini ta'kidlaydi. Mutafakkirning fikricha, inson faqat moddiy boylik orttirish uchun emas, balki xalq manfaatiga xizmat qilish, jamiyatni obod etish va ma'naviy kamolotga erishish uchun yashashi kerak.

Asarda ilm va ma'rifatning o'rni alohida ulug'lanadi. Ahmad Donish jaholat, dangasalik va takabburlikni qoralab, yoshlarni ilm olishga, kasb-hunar egallashga hamda jamiyatga foydali inson bo'lishga da'vat etadi. Uning qarashlarida insonparvarlik, mehr-shafqat, kamtarlik va xalqparvarlik asosiy axloqiy fazilatlar sifatida namoyon bo'ladi.

Mutafakkir jamiyat taraqqiyotini insonning aql-zakovati va mehnati bilan bog'laydi. U insonni tabiat va jamiyatni o'zgartira oladigan buyuk kuch deb hisoblaydi. Shu bois Ahmad Donish asarlarida insonni ulug'lash, uning imkoniyatlariga ishonch bildirish va ma'rifat orqali jamiyatni rivojlantirish g'oyalari yetakchi o'rin egallaydi.

Tadqiqot obyekti. “Navodir-ul vaqoe” asarining “Vasoyoi farzandon” (“Farzandlarga vasiyatlar”) nomli bobida inson tarbiyasi, ilm-ma'rifat, kasb-hunar, axloq va hayot falsafasi haqida chuqur fikrlar bildiradi. Asar muallifning hayotiy tajribasi asosida yozilgan bo'lib, unda farzandlarga nasihat va pandlar beriladi.

Mutafakkirning fikricha, inson yoshligidan odob, ilm va kasb-hunar egallashi kerak. U otanoning vazifasi farzandni tarbiyalash ekanini ta'kidlaydi. Ahmad Donish inson hayotida mehnat va kasb muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. Uning fikricha, inson halol mehnat orqali yashashi va boshqalarga foyda keltirishi lozim.

Asarda ilmning ahamiyati alohida ulug'lanadi. Ahmad Donish diniy va dunyoviy bilimlarni egallashni inson kamolotining asosiy omili deb biladi. U ilmni mansab yoki boylik uchun emas, balki xalq manfaatiga xizmat qilish uchun o'rganish kerakligini aytadi.

Masalan, muallif: “Ilm olishdan maqsad mansab emas, balki xalq ehtiyojiga xizmat qilishdir”, — degan g'oyani ilgari suradi.

Yana bir o'rinda u insonni ochko'zlik va ortiqcha nafsdan qaytarib, kamtarona yashashga undaydi. Mutafakkirning fikricha, ortiqcha boylik va huzur-halovat ketidan quvish insonni tashvish va azobga olib keladi.

Asarda axloqiy tarbiya ham muhim o'rin egallaydi. Ahmad Donish inson doimo yaxshilik va yomonlik o'rtasida tanlov qilishini ta'kidlab, insonni ezgulikka chorlaydi. U inson qalbida ikki kuch — yaxshilik va yomonlik mavjudligini aytadi. Yaxshi inson har doim aql, sabr va halollik bilan ish tutishi kerak.

Muallif insonning haqiqiy baxti mol-dunyoda emas, balki ma'naviy poklik, ilm va ibodatda ekanini qayd etadi. U kam yeyish, kam gapirish, foydali ish bilan shug'ullanish va vaqtni behuda sarflamaslikka chaqiradi.

Uning pedagogik qarashlari hozirgi oliy ta'lim tizimida talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan, “Vasoyoi farzandon”da: “Ilm olishdan maqsad mansab emas, balki xalq manfaatiga xizmat qilishdir”, — degan fikr ilgari suriladi.

Ushbu g'oya asosida talabalarni ijtimoiy mas'uliyat ruhida tarbiyalash mumkin. Masalan, “Talaba va jamiyat oldidagi mas'uliyat” mavzusida davra suhbatini tashkil qilinish, talabalarga kasbni faqat moddiy manfaat uchun emas, balki xalq manfaatiga xizmat qilish uchun egallash kerakligi tushuntiriladi.

Mutafakkir yana: “Кам хӯред ва кам гӯед ва кам ихтилот кунед” уа'ни “Кам yeyish, kam gapirish va foydali ish bilan shug'ullanish kerak”, — deb ta'kidlaydi.

Bu fikr talabalarni vaqtni to'g'ri taqsimlash, bekorchilik va zararli odatlardan uzoq bo'lishga o'rgatishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, talabalarga “Vaqtni boshqarish” bo'yicha trening o'tkazilib, kunlik reja tuzish va foydali faoliyat bilan shug'ullanish tavsiya etiladi.

Shuningdek, u ilmni inson kamolotining asosiy omili deb hisoblaydi. Masalan, “Аълони пешаҳо ва ҳирфатҳо касби улум аст” ya'ni, eng ulug' kasb — ilm egallashdir deydi. Buning pedagogik mexanizmi quyidagilardan iborat:

- ❖ talabalarni mustaqil mutolaa qilishga undash;
- ❖ “Ilm va ma'rifat haftaligi” tashkil qilish;
- ❖ ilmning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni haqida esse yozdirish.

Ahmad Donish inson qalbida ikki kuch — yaxshilik va yomonlik mavjudligini aytadi. U inson har bir ishda aql bilan qaror qilishi kerakligini ta'kidlaydi. Shu asosda talabalar bilan axloqiy vaziyatlar yuzasidan munozaralar tashkil etish mumkin. Masalan:

“Imtihonda ko'chirish yoki halol javob berish” mavzusida keys-stadi o'tkazilib, talabalar halollik va vijdon masalasini muhokama qiladilar. Bu esa ularda akademik halollik madaniyatini shakllantiradi.

Mutafakkirning: “Бояд ки сар ба ҳирфате ва пешае ниҳед” ya'ni, “Inson boshqalarga foyda keltirishi kerak”, — degan g'oyasi asosida talabalarni volontyorlik faoliyatiga jalb qilish mumkin. Masalan:

- ❖ kitobxonlik tadbirlarini tashkil etish;
- ❖ ekologik hasharlarda ishtirok etish.

Bunday faoliyat talabalarda mehr-shafqat, hamkorlik va ijtimoiy faollikni rivojlantiradi.

Ahmad Donish takabburlik va manmanlikni qoralab, kamtarlikni insonning oliy fazilati deb biladi. Shu sababli ta'lim jarayonida “Kamtarlik — komillik belgisi” mavzusida ma'naviy-ma'rifiy suhbatlar tashkil qilish mumkin.

Masalan, mashg'ulot davomida talabalardan: “Bilim insonni qanday qilib kamtar qiladi?” degan savol yuzasidan esse yozish talab etiladi. Bu esa talabalarning mustaqil fikrlash va o'z-o'zini tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

“Худой бо ман аст ва худой маро мебинад” degan hikmatli so'zi orqali esa Ahmad Donish inson har bir ishini tafakkur bilan amalga oshirishi lozimligini ya'ni, inson har doim o'z amallari uchun javobgar ekanini unutmasligi kerakligini ta'kidlaydi. Ushbu g'oyaning pedagogik ahamiyati shundaki, u talabalarda vijdon, mas'uliyat va ichki nazorat kabi muhim ma'naviy sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ahmad Donish inson har bir amalini o'ylab bajarishi, o'z xatti-harakatlariga tanqidiy baho bera olishi kerakligini ta'kidlaydi. Shu asosda ta'lim jarayonida refleksiya mashg'ulotlarini tashkil etish muhim hisoblanadi. Bunday mashg'ulotlarda talabalar o'z fikrlari, xatti-harakatlari va qarorlarini tahlil qilishni o'rganadilar. Masalan, “Men va mening mas'uliyatim” mavzusida suhbat va munozaralar o'tkazish orqali ularda o'z burchini his qilish, jamiyat va atrofdagilar oldidagi javobgarlikni anglash ko'nikmalari rivojlanadi. Natijada talabalarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashi boyib, ongli va mas'uliyatli shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratiladi.

Ahmad Donish yoshlarni isrofgarchilik, manmanlik va ortiqcha dabdabdan qaytarishga alohida e'tibor qaratadi. U inson hayotida me'yorni saqlash, kamtarlik va qanoatlilikni eng muhim axloqiy fazilatlardan biri deb hisoblaydi. Mutafakkirning “Майл ба азхору зиёдатӣ макунед” degan fikri ham insonni ortiqcha boylik orttirishga, dabdabali hayotga va keraksiz hashamatga berilmaslikka undaydi. Ushbu g'oya bugungi kunda talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda ham muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim jarayonida bu fikrlarni ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar orqali tushuntirish mumkin. Masalan, isrofgarchilikning jamiyat va inson hayotiga salbiy ta'siri haqida suhbat va munozaralar tashkil etiladi. Shuningdek, ushbu g'oyalarni ekologik va iqtisodiy tarbiya bilan bog'lash orqali talabalarda resurslardan oqilona foydalanish, tejamkorlik va mas'uliyat hissi shakllantiriladi. Minimalizm va me'yor tushunchalarini tushuntirish orqali esa talabalar ortiqcha hashamat emas, balki ma'naviy boylik va ilm insonni yuksaltirishini anglay boshlaydilar. Natijada ularda kamtarlik, qanoatlilik va ongli hayot tarzi ko'nikmalari rivojlanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Ahmad Donishning pedagogik qarashlari bugungi talaba-yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda muhim manba hisoblanadi. Uning ilm-ma'rifatga intilish, halol mehnat qilish, sabr-toqatli bo'lish, kamtarlik, qanoatlilik hamda o'zini nazorat qilish haqidagi fikrlari zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida samarali tarbiyaviy metod sifatida qo'llanilishi mumkin. Ayniqsa,

“Navodir-ul vaqoe” asari yosh avlodni ilimli, mehnatsevar, odobli, insonparvar va xalqparvar qilib tarbiyalashga xizmat qiluvchi muhim ma’rifiy manba sanaladi.

Mutafakkirning inson va jamiyat haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Uning axloqiy poklik, vijdon, mas’uliyat va ma’naviy yetuklikka oid g‘oyalari talabalarda ijtimoiy mas’uliyat, ilmga muhabbat va yuksak insoniy fazilatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ahmad Donish asarlaridan ta’lim jarayonida foydalanish orqali yoshlarni nafaqat bilimli, balki yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikrlaydigan va barkamol shaxs sifatida tarbiyalash mumkin.

Adabiyotlar:

1. И. М. Мўминов. Танланган асарлар. биринчи том. Тошкент, 1969.
2. Мо‘minov I., O‘zbekiston ijtimoiy-falsafiy tafakkuri tarixidan, T., 1964.
3. БСЭЗ: Дониш Ахмад Махдум бин Носир & 1969—1978.
4. Ахмад Дониш. История династии Мангитов. Перевод И. А. Наджафовой. Понедельник: Мудрость. 1967, стр. 24-27.
5. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
6. Ахмад Махдуми Дониш. Рисола ё мухтасаре аз таърихи салтанати хонадони мангития. Душанбе, 1992

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA , PSIXOLOGIYA VA METODIKA

Kurbanova Nasiba Usmonovna , The impact of artificial intelligence on the development of reading culture: A theoretical and empirical analysis	4
Mahmudova Zulfizar Eson Qizi , Maktabgacha ta'limda emotsional intellektni rivojlantirishning pedagogik ahamiyati	9
Sultonova Gulasal Shodmonovna , Xalq pedagogikasi vositalarining etno-estetik tarbiyadagi o'rni va ahamiyati	13
Azimova Dilnoza Orifovna , Umumiy o'rta ta'lim maktablarida matematikani kasbga yo'naltirib o'qitishda loyihaga asoslangan ta'limning samarali jihatlari	22
Rajabova Gulchexra Salomovna, Muzaffarova Dilshoda Mehriddin qizi , Elektron kutubxona tushunchasi va uning axborot tizimidagi o'rni	23
Tosheva N.T, Muhammadova M.F , Zamonaviy ta'lim muhitida madaniyatlararo munosabatlar uyg'unligi va taraqqiyot tendensiyalari	26
Raxmatullayeva Feruzabonu, Akramova Maftunabonu , Musiqa ta'limida xor ijrochiligini tashkil etishning maktab sharoitiga moslashtirilgan amaliy tizimi	31
Рузиева Наргиза Омонжоновна , Педагогические идеи и реформы Мирзо Улугбека в эпоху Темуридов	36
Nazarova Aziza Sohib qizi , Maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiat bilan tanishtirishning zamonaviy metodlari	39
Maxmudova Ruxsora Navro'z qizi , Ekologik tarbiya tushunchasining evolyutsion rivojlanishi va zamonaviy pedagogik talqinlari	43
Nadirxanova Nilufar Alesherovna , Talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	49
Umedov Shaxzod , Tasviriy san'at darslarida raqamli texnologiyadan foydalanish orqali talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish metodikasi	54
Omonov Qavmiddin Karimovich , Muhandislik grafikasini o'qitishda interaktiv usullardan foydalanish muammolari	57
Abdullayeva Dilrabo Baxtiyor qizi , Zo'ravonlikka duch kelgan o'smirlarning emotsional regulyatsiyasini rivojlantirishning psixologik mexanizmlari	63
Aslonova Emma Sergeyevna , Pedagog kadrlarning ekologik kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	68
Barnoyeva Sevara Uchqun qizi , Bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini tabaqalashtirilgan yondashuv asosida rivojlantirish: Ta'lim transformatsiyasi sharoitidagi muammo va yechimlar	73
Baxodirova Xalimabonu Baxodirovna , Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari	78
Qo'ldoshev Mexriddin Avezmurodovich , Ahmad Donishning "Navodir-ul vaqoe" asarida tarbiya, ilm va inson kamoloti masalalari	83
Choriyeva Hilola Avaz qizi , Oila va maktab hamkorligida nutqida nuqsoni bor bolalarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish mexanizmlari	87
D.I.Normatova , Maxsus kompetensiyalarni rivojlantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'rni	94
Toshmatov Bobur Alisher o'g'li , O'smir yoshdagi o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishning maqsadi, vazifalari va tamoyillari	98
Egamberdiyev Murod Farxod o'g'li , Xorijiy va milliy tajribalar asosida boshlang'ich sinf tasviriy san'at darslarida inklyuziv ta'lim modelini shakllantirish	103
Egamova Gulnoza Istam qizi , Talabalarning ekologik tarbiyasini rivojlantirishning mavjud ahvoli va uni takomillashtirish yo'llari	111
Hakimova Nargiza Supxonovna, Qo'shshiyeva Dilnoza Sulaymon qizi , Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarni rivojlantirish usullari	117
Hojiqurbonova Sevinch Sanjar qizi , Nozmunchoqning tarixi va madaniy ahamiyati	123
Ibadullayeva Shaxnoza Ilxamovna , Zamonaviy tasviriy san'at ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari	129